

ODAM SAVDOSI JINOYATINING TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLI KO‘RINISHLARI.

Subanov Olimjon Suyarkul o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish Instituti
Yuridik fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada odam savdosi jinoyatining tushunchasi va uning ijtimoiy xavfli ko‘rinishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Odam savdosi, jinoyat kodeksi, jinoyatchilik, profilaktika, Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonuni, ekspluatatsiya.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida, “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deyilgan. Ularning huquq va erkinliklari davlat muhofazasida ekanligi belgilab berilgan. O‘zbekistonda odamlardan qonunga xilof tarzda foydalanishga, ularning g‘ayriqonuniy mehnat migratsiyasiga va odam savdosiga qarshi kurash yuzasidan davlatimiz tomonidan tadrijiy, aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo bugungi kunda tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan uyushgan transmilliy jinoyatchilik ko‘rinishlaridan biri, odamlardan qonunga xilof tarzda foydalanish va odam savdosidir. Mazkur muammo ko‘pqirrali bo‘lib, uning yechimini topish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Odamlardan xalqaro miqyosda foydalanish uchun ularni yollash, ya’ni odam savdosi deb ataladigan bu jinoyat ham qurol-yarog‘ va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bilan bog‘liq serdaromad jinoyatlarga o‘xshash bo‘lib, bu boradagi uyushgan jinoiy faoliyat mo‘may daromad keltirishi, amalga oshirish usullari esa o‘ta maxfiy va xavfli ekanligi bilan ajralib turadi.

Odam savdosi inson, uning sha’ni, qadr-qimmati, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, o‘zining chegara tanlamasligi hamda girdobiga asosan yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan barchada katta tashvish va xavotir uyg‘otmoqda. Shu o‘rinda Shu o‘rinda huquqshunos A.Sharofutdinovning ushbu jinoyatlarni sodir etilish nafaqat bir shaxsning sha’ni va qadrqimmatini poymol qiladi, balki u davlatimizni xalqaro miqyosida obro‘-e’tiboriga ham katta putur yetkazadi, degan fikrlariga qo‘shilamiz. Ta’kidlash joizki, odam savdosi – bugungi kunda eng katta global

muammolardan biridir. Huquqshunos M.A.Rajabovaning fikricha, o‘tgan asrdan yigirma bиринчи asrga transmilliy tashkiliy jinoyatchilikning uchta eng xavfli turi “meros” bo‘lib o‘tdi, ular terrorizm va din niqobi ostidagi zo‘ravonlik ruhi kuch ishlatalish, ya’ni, extremistik, fundamentalisti, separatistik xurujlar turadi. Keyingisi esa narkobiznes va eng so‘nggisi odam savdosi, traffik bilan shug‘ullanuvchi yirik-yirik jinoyatchi tashkilotlardir. Odam savdosi keng tarqalgan jinoyat bo‘lib, dunyoda mavjud barcha mamlakatlarda sodir etiladi. Sababi ushbu jinoyat tufayli dunyoda daromadi yuzasidan uchunchi o‘rinni egallaydigan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etiladi. Bu orqali inson deb atalmish mavjudodning erkinligi cheklanadi, sha’ni qadr – qimmati toptaladi. Shu tufayli odam savdosi jinoyatini aniqlash, ushbu jinoyatni sodir etganlarni jinoiy javobgarlikka tortish orqali jazoning muqarrarligini ko‘rsatish, uni oldini olish, oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, odam savdosidan jabrlanganlarga nisbatan profilaktik choralarни ko‘rish zarur hisoblanadi.

Odam savdosi jinoiy faoliyatning o‘ta xavfli va shaxsni tahqirlovchi turidir. Tahqirlanish shunda namoyon bo‘ladiki, mazkur jinoyat qullikka o‘xshash shakllarda sodir qilinadi. Bundan tashqari, insonni ekspluatatsiya qilish, “tovar” sifatida sotish, inson omilidan foydalanish yo‘li bilan daromad orttirish bilan bog‘liqligi sababli tahqirlovchi mazmun kasb etadi. Bunday faoliyatning ingliz tilidagi nomi dunyoning ko‘p tillariga o‘zgarishsiz o‘tib kelgan. Xususan, xalqaro jinoyat huquqida jinoiy faoliyatning bu turiga nisbatan “traffik” atamasi ishlataladi. Aslida, “Traffik” lotin tilidagi “traffiso” so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab uni italiyaliklar muomalaga kiritgan. “Traffiko” – italyancha “tijorat”, “savdo” ma’nosida ishlatalgan. Dastlab bu atama “tabak traffik” shaklida qo‘llanilib, tamaki savdosi, tamaki bilan tijorat qilish ma’nosida ishlatalgan. Keyinchalik italiyaliklar uni qisqacha “traffik” deb atashgan. Darhaqiqat, shu so‘z o‘zagi asosida traffikant, ya’ni savdo qiladigan do‘kon egasi, do‘kondor so‘zi kelib chiqqan.

Odam savdosi tushunchasiga ta’rif va ushbu jinoyat uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 135-moddasida berilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 17-apreldagi “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan ushbu modda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yangi tahrirda berildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-154-son Qonuniga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritildi hamda 2020-yil 17-avgustda O‘zbekiston Respublikasining

“Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-633-sonli Qonuni yangi tahririda qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 135-moddasi avvalgi tahririda faqat ekspluatatsiya qilish maqsadida aldash yo‘li bilan odam yollash uchun javobgarlik nazarda tutilib, unda xalqaro huquqiy hujjatlarda zikr qilingan odamlar savdosi bilan bog‘liq bo‘lgan jinoiy qilmishlar kompleksi qamrab olinmagan edi. Bu hol amalda fuqarolar erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini to‘liq muhofaza qilinishini ta’minlay olmas edi. Bundan tashqari, fohishalarni ekspluatatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan odam savdosi to‘g‘risidagi BMTning 1949-yilgi Konvensiyasidan farqli ravishda, O‘zbekiston Respublikasi JK 135-moddasi yangi tahririda odamlarni har qanday maqsadda ekspluatatsiya qilganlik uchun aniq javobgarlik nazarda tutildi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasida nazarda tutilgan odam savdosi jinoyati – insonlarning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan biridir.

Odam savdosi, ya’ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish – o‘g‘irlash, zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, xizmat mavqeidan foydalanib, jabrlanuvchini O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o‘tish yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turish, qalbaki hujjatlardan foydalanish, jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olish, yashirish yoxud yo‘q qilib yuborish, kishi a’zolarini kesib olish, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantatsiya) kabi harakatlarini qamrab oluvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Odam savdosi – inson, uning sha’ni, qadr-qimmati, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, o‘zining chegara tanlamasligi hamda girdobiga asosan yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan barchada katta tashvish va xavotir uyg‘otmoqda. Bunga bиргина misol sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlarga ko‘ra, 2014-yilning o‘zida dunyo bo‘yicha odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 51% ayollar, 21% erkaklar, 20% voyaga yetmagan qizlar, 8% bolalar tashkil etadi³. I.B.Fozilov odam savdosiga quyidagicha ta’rif beradi: “Odam savdosi-odamga nisbatan qonunga xilof bitimni amalga oshirish yoxud odamni ekspulatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, qabulqilish, yashirish yoki ushlab turish tushuniladi”,

degan ta’rifni bermoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yil 15-noyabrdagi 55/25-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyada (mazkur xalqaro hujjat O‘zbekiston Respublikasi tomonidan (2001-yil 28-iyunda ratifikatsiya qilingan) esa odam savdosi tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Odam savdosi – odamlardan foydalanish uchun ularni yollash, tashish, berish, yashirish yoki odamlarni qo‘rqtish asosida kuch bilan boshqa vositalarni qo‘llash orqali yoki boshqa majburlov vositalari, o‘g‘irlilik, tovlamachilik, aldov, hokimiyatni suiiste’mol qilish, yoxud mansab mavqeidan foydalanib, sotib olish yo‘li bilan qo‘lga kiritishni anglatadi”. Odamlar savdosi – bu alohida shaxsni (yoki guruhni) yollash, ularni bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha harakat yoki maqsadlar bo‘lib, u o‘z ichiga sotish, sotib olish, topshirish, bunday harakatlarni foyda ko‘rish yoki shunchaki bunday shaxsni keyinchalik aldab yoki majburlab (zo‘rlik ishlatib yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtib), shuningdek, xizmat mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan ishlatish maqsadida ushlab turishni, shuningdek, shaxsni hohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida haq to‘lash yoki to‘lamasligidan qat’i nazar ushlab turishni ham o‘z ichiga oladi. Odam savdosi xalqaro hamjamiyat tomonidan inson, oila va jamiyat farovonligiga xavf tug‘diruvchi akt sifatida baholanadi.

Yuqoridagi ta’rif va tushunchalarga ko‘ra, odam savdosi quyidagi xattixarakatlarni o‘z ichiga oladi:

- a) odamlardan foydalanish maqsadida ularni jismoniy kuch ishlatish, ruhiy ta’sir ko‘rsatish, aldash, firibgarlik qilish yo‘li bilan o‘g‘irlash;
- b) o‘g‘irlangan yoxud aldangan odamlarni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish;
- v) shaxsning moddiy qiyin axvolga tushib qolganidan foydalangan xolda uni moddiy manfaatdor qilish yo‘li bilan o‘ziga og‘dirib olish;
- g) odam savdosiga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida xokimiyat vakolatini suiiste’mol qilish;
- d) odam savdosini amalga oshirish uchun fohishalardan foydalanish;
- ye) bolalar va ayollardan odam savdosida foydalanish uchun ularning yaqinlarini (ota-onasi, xomiy yoki vasiylari, eri yoxud xotini yoki boshqa yaqin qarindoshlarini pul evaziga og‘dirib olish;
- j) inson organlari yoki to‘qimalarini ajratib olish;

z) insonni erksiz yoki qullik xolatiga tushiradigan xattixarakatlarni sodlir qilish tushuniladi. Odam savdosi deganda, odamni olish-sotish yoki odamni ekspulatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi.

Oldi-sotdi tariqasidagi odam savdosi odamning bir shaxs tomonidan boshqasiga pul, boshqa moddiy qimmatliklar (mulk), mulkiy xarakterdagi xizmatlar, mulkiy yoki pul shaklidagi qarzdan voz kechish va x.k.lar sifatidagi haq evaziga berilishi to‘g‘risida yozma yoki og‘zaki bitim tuzilishini nazarda tutadi. Bunday ko‘rinishdagi odam savdosida odam qanday maqsadlarda sotib olinganligi (sotilganligi) huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

2020-yil 17-avgustdagи O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-633-sonli Qonunda “odam savdosi” tushunchasi “yollash”, “tashish”, “toshirish”, “yashirish”, “qabul qilish” qilmishlari (harakat shakli) holda berilgan.

2020-yil 17-avgustdagи O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-633-sonli Qonuning 3-moddasida, “odam savdosi — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish yo‘li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning o‘zga shakllarini, majburiy mehnatni yoki xizmatlarni, qullikni yoxud qullikka o‘xshash odatlarni, erksizlik holatini yoxud inson a’zolarini, to‘qimalarini va (yoki) hujayralarini ajratib olishni anglatadi”, deb berildi. Shu o‘rinda odam savdosida uchraydigan ayrim atamalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, odam savdosida ko‘p ishlatiladigan o‘zbek tilidagi “Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash” degan yuridik atama rus tilidagi matniga to‘la mos deb bo‘lmaydi. Xususan rus tilidagi tahrirdagi “ekspluatatsiya” degan so‘z, o‘zbek tilida “foydalanish” deb ishlatilgan. Foydalanish so‘zi lug‘aviy ma’noda mehnatning biror-bir foydali turi bilan ixtiyoriy ravishda shug‘ullanishni anglatadi. “Ekspluatatsiya” esa, odam kuchidan foydalanish, ishlab chiqarish vositalari egalarining boshqalar mehnati mahsulotini o‘zlashtirib olinishi natijasida majburiy ishlatishdir. Demak, “ekspluatatsiya” degan so‘z “foydalanish” degan so‘zdan ma’no va mazmun jihatidan mutlaqo farq qiladi.

Shuning uchun mazkur jinoyat tushunchasini o‘zbek tilida ifoda etishda, bizningcha “ekspluatatsiya” so‘zini ishlatish o‘rinli. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Atamalarning huquqiy ma’nosи” deb nomlanuvchi sakkizinchи bo‘limida odamlardan

foydalanish bu “Boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o‘xhash odatlar, erksiz holat yoxud inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish”, deb berilgan. Bu borada “yollash” tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ko‘plab yuridik adabiyotlarda mazkur jinoyat haqida so‘z yuritilganda, ayrim olimlar “odamlarni yollash” degan tushuncha o‘rniga “odamlar kontrabandasi” degan tushunchadan foydalanganlar. Bizningcha, “odamlar kontrabandasi” degan tushuncha to‘g‘ri emas, chunki ushbu jinoyat predmeti xususan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 246-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, kontrabanda predmetiga kuchli ta’sir qiluvchi zaharli, zaharovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separitizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar kiritilgan. Shu sababli biz insonni bevosita uni bu jinoyat predmeti qatoriga kiritishni to‘g‘ri, deb hisoblay olmaymiz. Qolaversa, odam savdosi, ya’ni odamni olish-sotish alohida jinoiy tarkibni tashkil etadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, odam savdosining ijtimoiy xavfliligi, uning O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga tahdidi va uni oldini olishning milliy va xalqaro qonunchiligi bilan himoya qilishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Ushbu maqola shixsiy fikrlar asosida yozilgan. Subanov Olimjon Suyarkul o‘g‘li 2024.

Research Science and Innovation House